

Turbo Pascal 7.0 integrallashgan muhiti

1. *Paskal dasturlash tilini kim ishlab chiqqan?*

Paskal dasturlash tilini **1969-yilda Nikalas Virt** ishlab chiqqan.

2. *Qachon Paskal tilining xalqaro standard taklif etilgan?*

1981- yilda Paskal tilining xalqaro standarti taklif etilgan.

3. *Turbo Pascal 7.0 qaysifirma tomonidan ishlab chiqilgan?* Turbo Pascal 7.0 Borland firmasi tomonidan ishlab chiqilgan.

4. ***Turbo Pascal 7.0** - dasturlash tizimi tashqi xotiraning odatda qaysi katalogida joylashtiriladi?*

Turbo Pascal 7.0 - dasturlash tizimi tashqi xotiraning odatda, «**TP7**» nomli katalogiga joylashtiriladi (umuman olganda boshqa katalogga joylashtirish ham mumkin).

5. *Turbo Paskal integrallashgan muhitini ishga tushiruvchi fayl nomi nima?*

Turbo Paskal integrallashgan muhitini ishga tushiruvchi fayl nomi **Turbo.exe** hisoblanadi.

6. ***Turbo.exe** fayli qaysi katalogda joylashgan?* **Turbo.exe** fayli «**BIN**» katalogida joylashgan.

7. ***Turbo.exe** fayli ishga tushirilgach, ekranda qanday oyna paydo bo 'ladi?*

Turbo.exe fayli ishga tushirilgach, ekranda Turbo Paskal integrallashgan muhiti interfeysi ochiladi.

8. *Turbo Paskal dasturida **File** menyusining **New** (Yangi) buyrug 'i tanlansa qanday oyna hosil bo 'ladi?*

Dastur matni muharriri oynasi ochiladi.

9. *Paskalda faol oyna nima?*

Turbo Paskal integrallashgan muhitida joriy vaqtda ishlanayotgan oyna **faol oyna** deyiladi.

10. *Paskalda **File** menyusining **Open** opsiyasi vazifasi nima?* Ochish - tashqi xotiradagi faylni tezkor xotiraga yuklash.

11. *Paskalda **F2** klavishining vazifasi nima?* Saqlash.

12. *Paskalda **Alt+F3** klavishining vazifasi nima?* Faol oynani yopish.

13. *Paskalda **Alt+X** klavishining vazifasi nima?* Chiqish.

14. *Paskalda **Ctrl+F9** klavishining vazifasi nima?* Dasturni ishga tushirish.

15. *Paskalda **Alt +F5** klavishining vazifasi nima?* Dastur natijasini ekranda ko'rish.

16. *Paskalda **Alt +F9** klavishining vazifasi nima?* Dasturni kompilyatsiya qilish.